

TIL VA YOZUV MASALALARI

Andijon davlat chet tillari instituti
Ingiliz filologiyasi, o`qitish
metodikasi tarjimashunoslik fakulteti
Maktabgacha va boshlang`ich
ta`limda ingliz tili 3-kurs talabasi
To`lqinjonova Mohinur Bobirjon qizi
tulkinjonovamohinur05@gmail.com
Andijon viloyati, Andijon shahar
+998976131633

Annotatsiya: Ushbu maqolada til vayozuv masalalarining tarixiy rivoji, ularning jamiyat taraqqiyoti orni hamda zamonaviy davrdagi dolzarb muammolari yoritiladi. Tilning milliy ozlikni shakllantirishdagi ahamiyati ozbek yozuvining arab krill va lotin grafikalariga asoslangan bosqichlari, imlo me`yorlari va lingvistik standartlashtirish jarayonlarini tahlil qilinadi. Shuningdek, raqamli kommunikatsiya davrida tilga kirib kelayotganyangi birliklar, internet tili, globalizatsiya ta`siri va yoshlar nutqidagi ozgarishlar haqida ilmiy mulohazalar beriladi. Maqola til va yozuvni rivoltantirish boyicha taklif va tavsiyalarni ham oz ichiga oladi.

Annotation: This article analyzes the historical development of language and writing, their significance in social progress, and the modern issues associated with them. The study examines the role of language in shaping national identity, the stages of Uzbek writing systems including Arabic, Cyrillic, and Latin scripts, as well as spelling norms and linguistic standardization. It also discusses the influence of digital communication, the emergence of new linguistic units, internet slang, the impact of globalization, and changes in youth speech. The article presents scientific suggestions and recommendations for the further development of language and writing systems.

Kalit sozlar: til, yozuv, imlo, alifbo, fonetika, lingvistika, savodxonlik, internet tili, globalizatsiya, davlat tili, yozuv islohoti, standartlashtirish, madaniy meros, kommunatsiya.

Key words: language, writing system, orthography, alphabet, phonetics, linguistics, literacy, digital communication, globalization, state language, script reform, standardition, cultural heritage, communication.

Kirish

Til insoniyatning eng muhim ijtimoiy hodisalaridan biri bolib, u jamiyatning madaniy, va intellektual rivojida beqiyos orin egallaydi. Yozuv ese tilning grafik asosda mustahkamlanishi, avlodlararo bilim va tajribani uzluksiz davom ettirish

imkonini yaratuvchi tizimdir. Shu sababli til va yozuv masalalari har bir millat hayotida strategic ahamiyatga ega bolgan dolzarb mavzulardan biridir.

Tilning jamiyat taraqqiyotidagi o`rni

Til insonlarning ozaro muloqoti, fikrlash jarayoni, bilim almashinuvi va ijtimoiy hayotni tashkil etuvchi bosh omilidir. Millatning tarixini anglash va taraqqiyotga intilish jarayonlarida tilning orni beqiyosdir. Har bir xalqning oz tili uning madaniy merosini aks ettiradi, dunyoqarashini ifodalaydi va ma`naviy boyligini asrab qoladi. Til insonning fikrini ifoda etish, o`zaro muloqot qilish, bilim va tajribalarni avloddan avlodga yetkazishda asosiy vosita hisoblanadi. Uning quyidagi funksiyalari mavjud:

1. Kommunikativ funksiya- muloqot va axborot almashishni ta`minlaydi.
2. Nominative funksiya- buyum va hodisalarga nom berish vazifasini bajaradi.
3. Estetik funksiya – badiiy adabiyot, poeziya va san`at asarlarining yaratilinishida namoyon bo`ladi.
4. Madaniy funksiya- xalqning mentaliteti, qadryatlari, tarixini saqlaydi.

Tilning rivojlanishi jamiyat rivoji bilan chambarchas bog`liq. Jamiyat taraqqiy etgani sari til boyiydi, leksik qatlam kengayadi, yangi tushunchalar paydo bo`ladi.

Yozuvning shakllanishi va tarixiy bosqichlari

O`zbek tili tarixida yozuv uch marotaba tubdan o`zgargan;

1. Arab yozuvi

Asrlar davomida qo`llangan. Ammo u turkiy tovush tizimini to`liq ifodalay olmagan sabab ayrim fonetik noaniqliklar mavjud bo`lgan.

2. Krill yozuvi

Sovet davrida joriy etilgan. Bu yozuv fonetik jihatdan nisbatan mos bo`lsa-da, siyosiy maqsadlar ustuvor bo`lgan.

3. Lotin yozuvi

1993-yilda mustaqil O`zbekistonning qarori bilan qabul qilingan. Lotin yozuvi xalqaro integratsiya, texnologik taraqqiyot va zamonaviy ilmiy aloqalar uchun qulay imkoniyatlar yaratadi.

Yozuvning almashishi nafaqat lingvis tik, balki ta`lim, madaniyat va jamiyat ongiga kata ta`sir ko`rsatgan.

Yozuvning ahamiyati va tarixiy taraqqiyoti

Yozuv – insoniyatning eng buyuk kashfiyotlaridan biri. U tarix, madaniyat va ilm-fanning rivojida hal qiluvchi rol o`ynaydi. Yozuv taraqqiyoti quyidagi bosqichlardan o`tgan;

1. Piktografik yozuv – tasvirlar orqali fikr ifodalanadi.
2. Ideografik yozuv – belgilar tushunchalarni anglatadi.
3. Fonetik yozuv – tovushlar harflar orqali ifodalanadi.
4. Hozirgi grafik tizimlar – lotin, krill, arab va boshqa alifbolar.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar yozuvning yangi shakllarini vujudga keltirmoqda. Masalan, matnli xabarlar, electron hujjatlar, internet matnlari, emodzilar-bularning barchasi yozuvning zamonaviy ko`rinishlaridir.

Zamonaviy davrda til va yozuv muammolari

1. Imlo muammolari

Yangi alifbo to`liq qilinmaganligi, eski va yangi imlo qoidalarining aralash qo`llanilishi savodxonlikka salbiy ta`sir ko`rsatmoqda.

2. Internet tili

Raqamli muloqot natijasida, inglizcha so`zlashuvlar va emoji nutq madaniyatini o`zgartirmoqda.

3. Globalozatsiya ta`siri

Xalqaro so`zlar tilga tez kirib kelmoqda, bu esa lug`aviy tizimda o`zgarishlarni kuchaytirmoqda.

4. Yoshlar nutqidagi o`zgarishlar

Sleng, aralash til fonetik buzilishlar ko`paymoqda.

Til va yozuvni rivojlantirish bo`yicha takliflar

1. Ta`lim tizimida o`zbek tilining amaliy qo`llanilishini kuchaytirish .

2. Lotin yozuviga izohli va ilmiy asosda to`liq o`tish.

3. Rasmiy hujjatlarva OAV da yagona imlo me`yorlariga rioya etishini ta`minlash .

4. Internet tili bo`yicha me`yoriy tavsiyalar ishlab chiqish.

5. Tilshunoslar, o`qituvchilar va texnologlar hamkorligida zamonaviy til siyosatini shakllantirish.

Xulosa

Til va yozuv xalqning ma`naviy boyligini aks ettiruvchi, avlodlar orasidagi bog`liqlikni mustahkamlovchi kuchli vositadir. Ularning rivojlanishi jamiyat taraqqiyoti uchun muhim shart bo`lib, imlo me`yorlarini takomillashtirish, yozuv islohatlarini izchil amalga oshirish va raqamli davr talablariga moslashish kelajak avlodning saviyasini belgilaydi. Til va yozuvga e`tibor-millat kelajagiga e`tibordir.

Til va yozuv masalalari – zamonaviy lingvistikaning eng dolzarb yo`nalishlaridan biridir. Til jamiyatning ma`naviy asoslarini mustahkamlaydi, yozuv esa bu madaniyatning tarixiy xotirasini saqlab qoladi. O`zbek tilining lotin yozuviga o`tishi, zamonaviy texnologiyalar bilan uyg`unlashuvi, global jarayonlarga moslashuvi tilning istiqbolda yanada rivojlanishini ta`minlaydi. Shuningdek ekan, til va yozuvnig chuqur o`rganish , me`yorlashtirish, amaliyotga tatbiq etish jamiyat taraqqiyoti uchun muhim omillaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulazizov A. O`zbek tili fonetikasining nazariy masalalari. Toshkent, 2015.
2. Hojiev A. Tilshunoslikka kirish. Toshkent, 2014.

3. Qosimov B., Qo`chqarov A. O`zbek adabiy tili tarixi. Toshkent,2012.
4. Saidov U. Yozuv tarixi uning rivoji.Toshkent, 2017.
5. Eshonqulov R. O`zbek tilining imlo qoidalari va amaliy masalalari
6. Toshkent,2019.

